AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA “DUE DILIGENCE” XIZMATINI ISHCHI HUJJATLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN BOSQICHMA-BOSQICH MODEL ASOSIDA TASHKIL ETISH 421
Sidiqov Dilmurod Xasanboy o‘g‘l
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH VA MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH 424
Parpiyeva Ra’no Abdurasulovna
KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLLIGINI TA’MINLASHDA SOLIQLARNING RAG‘BATLANTIRUVCHI ROLINI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI 427
Ilyasova Barno Axmadovna
TOVAR BELGILARIDAN TIJORAT MUOMALASIDA FOYDALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 432
Ermetova Shoira Xasanovna
ОЦЕНКА БАНКАМИ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ 436
Назарова Диера Бахадировна
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 439
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT QARZI HAJMI VA TARKIBIY TUZILISHI: TASHQI VA ICHKI QARZ DINAMIKASI TAHLILI 442
Sayfitdinov Xasanboy Dilshodovich
IQTISODIY FANLAR PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINI MASOFAVIY O‘QITISHGA TAYYORLASHNING TO‘RT BOSQICHLI TIZIMI:RAQAMLI PEDAGOGIKA TRENINGI VA KOMPETENSIYALAR DINAMIKASI 445

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi
IJTIMOIY XARAJATLARNI MOLIYALASHTIRISHNING ASOSIY MASALALARI 450
Tulyaganov Olim Rustamovich
TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL YETARLILIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: BAZEL III TAMOYILLARI ASOSIDAGI EMPIRIK TAHLIL 453
Xakimov Zoxid Norbo‘tayevich
IMPLEMENTATION AND APPLICATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS) IN THE FINANCIAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CHALLENGES AND PROSPECTS 458
Khattabov Temurbek Muzaffar Ugli
O‘ZBEKISTONDA BOLALI OILALARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VOSITASI SIFATIDA 461
Asomiddinova Muzayyanxon Abdurahmon qizi
O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH 467
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich
ЦИФРОВЫЕ И ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННЫЕ КОММУНИКАЦИИ В ПРОДВИЖЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ: РОЛЬ ДОВЕРИЯ И ВОСПРИНИМАЕМОЙ ЦЕННОСТИ 470
Умаров Шухрат Баходир угли
KEY AUDIT MATTERS AND THEIR CONSEQUENCES FOR FIRMS AND CAPITAL MARKETS 473
Alasgarli Farid
INSONGA YO‘NALTIRILGAN SUN’IY INTELLEKTNING XODIMLAR FAROVONLIGIGA TA’SIRI 476
Nazirjonova Marziaxon Xamidulla qizi
TIJORAT BANKLARIDA SANKSION NAZORAT VA AML/CFT TIZIMINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI 479
Rustamov Sunnatillo Rustamovich
BIZNESNI TASHKIL ETISH JARAYONIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI 483
Jo‘rayev Jahongir Bahodir o‘g‘li
TA’LIM TURIZMIDA QAROR QABUL QILISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNING RIVOJLANISHINI BAHOLASH MEZONLARI 488
Zulxaynarov Samandar Ravshan o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI VA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 492
Niyozova Ruxsora Nurali qizi
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGI VA DAVLAT BYUDJETI SIYOSATI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK 496
M.Q. Maxmudova
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 502
Yusubboyeva Mohinur Qudrat qizi
MODA INDUSTRIYASIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 504
Abdumajitova Adolat Bahrom qizi
IQTISODIY SUDLARDA YARASHTIRUV VA MEDIATSIYA JARAYONLARIDA HUQUQLARNI SUISTE’MOL QILISHNING OLDINI OLISH HAMDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR 507
Ungarov Akram Botirqul o‘g‘li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ВУЗА В УСЛОВИЯХ УСИЛЕНИЯ КОНКУРЕНЦИИ НА ПРИМЕРЕ ТГЭУ 511
Кахрамонова Азиза Шухрат кизи
Джалилов Джамшид Ганиевич
IQTISODIYOTNING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLASHTIRISHNING O‘RNI VA ASOSIY OMILLARI 514
Imomova Kamola Novfal qizi
DAVLAT IJTIMOIY SOHA MUASSASALARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONI 519
Hasanov To‘lqin Axmatovich
HUDUDIY SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIFFERENSIAL TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 522
Ravshanova Sevara Zafar qizi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT SOHASIDA TOVAR BELGILARINING FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 525
Ermetova Shoira Xasanovna
MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINING JORIY HOLAT TAHLILI 530
Ziyodilloyev Xushnud Rahimboyevich
РАЗВИТИЕ БЕЗНАЛИЧНЫХ ПЛАТЕЖЕЙ КАК ФАКТОР СОКРАЩЕНИЯ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА 534
Катаева Шаходат Баходировна
QARZ QIMMATLI QOG‘OZLARI – TIJORAT BANKLARI BARQAROR RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH VOSITASI 537

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tillayev Xurshidjon Sulaymon o‘g‘li
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TIJORATNING IQTISODIY MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI 541
Egamberdiyev Sanjar Shokir o‘g‘li
ESG TAMOYILLARINING SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI 544
Alimov Jamshid Bahriddin o‘g‘li
XALQARO PUL O‘TKAZMALARINING O‘ZBEKISTON MAKROIQTISODIY BARQARORLIGIGA TA’SIRI 547
Abirqulova Sohibjamol Normuxammad qizi
DAVLAT XARIDLARINI “YASHIL”LASHTIRISH JARAYONIDA O‘ZBEKISTONDA ME’YORIY ASOSLAR, O‘LCHASH MUAMMOLARI VA HAYOTIY SIKL XARAJATLARIGA ASOSLANGAN BAHOLASH YONDASHUVI 549
Israilova Soxiba To‘lqin qizi
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA NAQDSIZ TO‘LOVLAR RIVOJLANISHI 553
Akramova Mahliyo Ibrohim qizi
DUAL TA’LIM ASOSIDA QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 556
Rajapova Guldona Usman qizi
НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОЦЕНИВАНИЯ 559
Ганиев Бехруз Ихтиёрович
AHOLI BANDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY MODELLARI VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI 559
Akbarova Malika Ilxomovna
ОХРАНА ТРУДА КАК ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕЛОВЕКА 561
Дониёрова Ф. А.
BUDJETLARARO TRANSFERTLAR TIZIMINI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJRIBA, ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ULARDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI 564
Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li
THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERNIZING THE NATIONAL ASSESSMENT SYSTEM 567
Ganiyev Bexruz Ixtiyorovich
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONFLIKTLARNI RAQAMLI MONITORING VA PROFILAKTIK BOSHQARUV ORQALI KAMAYTIRISH 573
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi
TARKIBIY O‘ZGARISHLARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 577
Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi
VENCHUR KAPITALINING IQTISODIYOTDA QO‘SHIMCHA QIYMAT YARATISHI 581
Abduraximova Shahruzaxon Sarvar qizi
AGROTURISTIK KLASTERLARNI STRATEGIK BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 587
Yoriyeva Farangiz Murodilloyevna
ГАРМОНИЗАЦИЯ КЛАССИФИКАЦИИ И СТАТИСТИКИ ОТХОДОВ КАК УСЛОВИЕ ТРАНСГРАНИЧНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 591
Рахимова Комила Бахтиёровна
KORPORATIV OBLIGATSIYALAR – AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING MUQOBIL MANBAI 596
Jumatova Gulzar Maxmud qizi
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING O‘ZBEKISTON HUDUDLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHGA TA’SIRI 600
Aliyeva Perizat Tazabay kizi
MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHDA FUNKSIONAL VALYUTA TUSHUNCHASI VA UNI HISOBGA OLISH 603
Kozimjonov Abrorbek
KORXONALARDA INVESTITSION QARORLARNI QABUL QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI 606
Habibullayev Jasurbek Kurbanbay o‘g‘li
АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЯ ОБЪЁМА ЗАТРАТ В СФЕРЕ УСЛУГ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (2016–2025 ГОДЫ) 609
Мадрахимова Г. Р.
Мансурова М. Ё.
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 612
Fayziyeva Nilufar Shavkat qizi
YASHIL IQTISODIYOTDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA INVESTITSION LOYIHALARNI RIVOJLANTIRISH 615
Yesmurzaev Joldasbay Tangatarovich
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA ELEKTRON SAVDO INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 618
Saidkobil Murodov

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI 620
Xidirov Boboyor Davronovich
O'ZBEKISTONNING XITOYDAN IMPORT TALABI VA SAVDO BALANSI TAQCHILLIGINING EKONOMETRIK TAHLILI 622
Xurramov Xumoyun Murod o'g'li
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI 626
Istamov Shoxrux
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI 629
Giyayev Rustamjon Abdurasulovich
QURILISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMI: RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION BOSHQARUV 632
Umarova Nargiza Mirakabarovna
КАЧЕСТВО АПТЕЧНЫХ ДАННЫХ КАК УСЛОВИЕ ФИНАНСОВО ОБОСНОВАННОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СПРОСА И УПРАВЛЕНИЯ ЗАПАСАМИ 635
Пулатова Фируза Сафар кизи
YASHASH VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 638
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi
SURXONDARYO VILOYATI TRANSPORT TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRI 641
Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF BUDGET FUNDS UTILIZATION IN PUBLIC SECTOR ORGANIZATIONS 644
Aziza Shokirova
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI 647
Valiev Umid Gulamovich
IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING IQTISODIY MOHIYATI, INSTITUTSIONAL MODELI VA DAVLAT IJTIMOIY SIYOSATIDAGI O'RNI 650
Muxtorov Ulug'bek Xayotjonovich
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA MANZILLILIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 652
Axmadjanov Abrorbek Akbarjon o'g'li
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIZNES RIVOJLANISHINI PANEL EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 655
Saidova Marhabo Xabibullo qizi
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI 659
Qorriyeva Shohnoza Saparboyevna
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH BO'YICHA TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI 662
Ergashev Iskandar Urunovich
DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA MOLIYAVIY NAZORATDAN FOYDALANISHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI 664
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISH: NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI 669
Allakuliyev Akmal Baltayevich
TEMIRYO'L ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING TARMOQ QONUNIYATLARI VA ULARNI BOSHQARUV JARAYONIDA HISOBGA OLISH 673
Mannonov Shohruhmirza Abdirashid o'g'li
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: INVESTITSIYA, HUDUDIY TENGSIZLIK VA NATIJADORLIKKA ASOSLANGAN YONDASHUV 678
Karimova Dilafruz Sadriddin qizi
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI SAVDONING RIVOJLANISH HOLATINI KO'P OMILLI INDEKSLAR USULIDA STATISTIK BAHOLASH 682
Norkulov Shavkat Shakarbayevich
YASHASH VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI STATISTIK-EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 685
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi
IQTISODIYOTNING BARQAROR O'SISHINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 688
Ermatov Akmaljon Adxamovich
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MENEJMENT ASOSIDA LIKVIDLIK VA TO'LOVGA QOBILLIKNI BOSHQARISH 692
Askarov Ziyodulla Usmanalievich
ОЦЕНКА ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ 697
Хужаева Малика Акбаровна
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDAGI XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH 699
Siroj Zarina Rustambekovna
ELEKTROTEXNIKA KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IKKI BOSQICHLI MEXANIZMI:

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

«KETMA-KETLIK – CHEGARA» KONSEPSIYASI VA 2030-YILGACHA SSENARIYLAR 702
Bahodirov Jahongir

ВЫБОР ИНСТРУМЕНТОВ ESG-ФИНАНСИРОВАНИЯ ДЛЯ ПРЕДПРИЯТИЙ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: ОПЫТ АО «АЛМАЛЫКСКИЙ ГМК» 706
Г. Б. Сагдуллаева

TO‘QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 708
Mahmudova Chinora

O‘ZBEKISTONDA ILMIY NASHRLAR NATIJADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH: NASHRLAR HAJMI, JURNAL KVARTILI VA IQTIBOS TA’SIRI 711
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi

ЛИЦЕНЗИРОВАНИЕ И НАДЗОР ЗА ТАКАФУЛ-ОКНАМИ: УПРАВЛЕНИЕ СОБЛЮДЕНИЕМ ПРИНЦИПОВ ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ И КРИТЕРИИ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОГО НАДЗОРА 715
Худойбердиев Умид Мурадович

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIYMA’RIFIY FAOLIYATNI RAQAMLI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 719
Uzaqov Nomozali Hamdamovich

TA’LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT VA INTELLEKTUAL TAHLIL TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI 722
Shakirova Sevara Baxodirovna

SANOAT KORXONALARIDA ERP TIZIMLARINI BOSQICHMA-BOSQICH JORIY ETISHNING IQTISODIY USTUVORLIKLARINI ANIQLASH 726
Xoliyarov Farhod Toshmuradovich

MARKAZIY OSIYODA INVESTITSIYALARNI ILGARI SURISHNING MINTAQAVIY MEXANIZMLARI: CA-IPAN VA YAGONA INVESTITSIYA PORTALINI SHAKLLANTIRISH 729
Ergashova Jannatoy Shuhrat qizi

ГИБКОСТЬ НАГРУЗКИ И ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОЕ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЕ ДАТА-ЦЕНТРОВ ДЛЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ОПЫТ США И ЗАДАЧИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА 732
Алиханов Бехзодхон Борий угли

YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA AYLANTIRISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 736
Palvonova Sevara Baxromovna

INKLYUZIV O‘SISHNI TA’MINLASHDA XALQARO TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI 739
Raximov Eshmurod Normuradovich

INKLYUZIV O‘SISHNI TA’MINLASHDA XALQARO TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Raximov Eshmurod Normuradovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: e.rakhimov88@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-5961-7683

Annotatsiya. Tezisda inklyuziv o‘sish tushunchasi, uni baholashning xalqaro yondashuvlari hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Iqtisodiy o‘sish samaralarining aholining barcha qatlamlari va hududlarga yetib borishiga ta’sir etuvchi omillar, xususan, daromad va bandlik imkoniyatlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim hamda moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Xalqaro tashkilotlarning baholash yondashuvlari va ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni baholash tajribasi umumlashtirilib, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining pasayishi, daromad manbalari tarkibi va hududiy farqlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida inklyuziv o‘sishni mustahkamlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar asoslangan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv o‘sish; kambag‘allik; ko‘p o‘lchovli kambag‘allik; bandlik; daromad tengsizligi; hududiy farqlar; xalqaro tajriba; O‘zbekiston.

Abstract. This thesis examines the concept of inclusive growth, international approaches to its assessment, and the opportunities for applying these approaches in Uzbekistan. It explores the factors influencing the distribution of economic growth benefits across different population groups and regions, with particular emphasis on income and employment opportunities, as well as equitable access to healthcare, education, and financial services. Drawing on the assessment frameworks of international organizations and international experience in measuring multidimensional poverty, the study analyzes poverty reduction trends, the composition of household income sources, and regional disparities in Uzbekistan. Based on the findings, priority areas for strengthening inclusive growth are identified and substantiated.

Keywords: inclusive growth; poverty; multidimensional poverty; employment; income inequality; regional disparities; international experience; Uzbekistan.

KIRISH

Iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan bir qatorda aholi farovonligining oshishini ta’minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. O‘sish samarasi daromadlar, ish o‘rinlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim va moliyaviy xizmatlar orqali jamiyatning barcha a’zolari hamda barcha hududlarga yetib borgandagina u inklyuziv, ya’ni qamrab oluvchi o‘sish hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy siyosat endi faqat YaIM o‘sishiga emas, balki o‘sish imkoniyatlari va natijalarining adolatli taqsimlanishiga ham yo‘naltirilmoqda. Inklyuziv o‘sishga nisbatan xalqaro yondashuvlar farovonlikni ko‘p o‘lchovli tushunish asosida shakllangan: daromad bilan bir qatorda bandlik, sog‘liq va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlar ham hisobga olinadi. Bu yondashuv mamlakatlar o‘rtasida taqqoslash imkonini beradi va siyosat choralarini manzilli belgilashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yuqori iqtisodiy o‘sish kuzatilmoqda va kambag‘allik darajasi sezilarli pasaygan. Biroq aholining kambag‘allikka qaytish xavfi ostidagi qismi, hududlar o‘rtasidagi farqlar, bandlik sifati va yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoj kabi masalalar inklyuziv o‘sish siyosatini chuqurlashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Aholi sonining ortishi va urbanizatsiya jarayonlari sharoitida barqaror va sifatli bandlikni ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribada qo‘llaniladigan o‘lchov yondashuvlari va hududlarga manzilli yordam mexanizmlarini mahalliy sharoitga moslashtirish orqali inklyuziv siyosatning samaradorligini oshirish mumkin. Bu ushbu masalani ilmiy jihatdan o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi.

Tezisning maqsadi inklyuziv o‘sishni ta’minlashga oid xalqaro yondashuvlarni umumlashtirish, O‘zbekistondagi hozirgi holatni ko‘rsatkichlar asosida baholash va xalqaro tajribani mahalliy sharoitda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Inklyuziv o‘sish iqtisodiy o‘sishning foydasi jamiyatning barcha qatlamlariga yetib borishini va barcha aholi guruhlari iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Ilmiy adabiyotlarda uning asosiy yo‘nalishlari sifatida ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozori va moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish ko‘rsatiladi; ushbu imkoniyatlardan teng foydalanish kambag‘allikni qisqartirishga ko‘maklashuvchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi. Davlat siyosati, xususiy sektor tashabbuslari va xalqaro hamkorlik inklyuziv o‘sishni mustahkamlashning uch asosiy kanali hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlarning o‘lchov yondashuvida ko‘p o‘lchovli turmush darajasi ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Unda farovonlikni baholashda pul daromadi bilan bir qatorda sog‘liq (umr davomiyligi orqali) va bandlik (ishsizlik orqali) kabi pul bilan bevosita o‘lchanmaydigan ko‘rsatkichlar ham hisobga olinadi. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, YaIM o‘sishi bilan birga uning aholi farovonligiga qanday aylanishi ham kuzatiladi. 1-jadvalda yondashuvning asosiy o‘lchamlari va ularni O‘zbekiston sharoitida kuzatish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar umumlashtirilgan.

1-jadval. Inklyuziv o‘sishning o‘lchamlari va O‘zbekistonda ularni kuzatish ko‘rsatkichlari

O‘lcham	Mazmuni	O‘zbekistonda kuzatiladigan ko‘rsatkichlar
Daromad	Aholi jon boshiga daromad darajasi va uning taqsimoti	Jon boshiga o‘rtacha oylik daromad; yuqori va quyi kvintil daromadlari nisbati; Jini koeffitsienti
Bandlik	Ish bilan ta’minlanganlik va ish o‘rinlari sifati	Mehnat daromadining umumiy daromaddagi ulushi; barqaror bandlik ko‘rsatkichlari
Sog‘liq	Aholi sog‘lig‘i va umr davomiyligi	Sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati
Ta’lim va moliyaviy xizmatlar	Bilim va moliyaviy resurslardan teng foydalanish	Ta’lim qamrovi, kichik biznes va aholi uchun moliyaviy xizmatlar
Hududiy tenglik	Hududlar o‘rtasidagi farqlar	Hududlar kesimida kambag‘allik darajasi; shahar va qishloq ko‘rsatkichlari

Manba: OECDning inklyuziv o‘sishni baholash metodologiyasi [1] va ilmiy adabiyotlar [5] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni baholash tajribasi bir qator mamlakatlarda qo‘llaniladi. Masalan, Vetnamda kambag‘allik faqat daromad bilan emas, ko‘p o‘lchovli mezonlar asosida aniqlanadi va natijalar hududlar kesimida e’lon qilinadi. 2022-yilda mamlakatda ko‘p o‘lchovli mezonlar bo‘yicha kambag‘al va kambag‘allikka yaqin xonadonlarning umumiy ulushi 7,52 foizni yoki taxminan 1,97 million xonadonni tashkil etgan. Hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar kuzatilgan: shimoliy o‘rta tog‘li hududlarda bu ko‘rsatkich 21,92 foizni, janubi-sharqiy mintaqada esa 0,34 foizni tashkil etgan. Bunday hududiy tafovutlarni ochiq ko‘rsatish yordamni eng muhtoj hududlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish yuqori darajada saqlanmoqda: real YaIM o‘sishi 2024-yilda 6,7 foiz, 2025-yilda esa 7,7 foizni tashkil etgan, 2017–2025-yillarda o‘rtacha yillik o‘sish taxminan 6 foiz bo‘lgan. Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2026-yil iyunidagi prognoziga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish 6,8 foizni, Jahon bankining 2026-yil oktabrdagi prognoziga ko‘ra esa 7,9 foizni tashkil etishi kutilgan. Shu bilan birga, milliy kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha pasaygan, bu 3,7 million kishining kambag‘allikdan chiqishiga mos keladi. Biroq yana 22 foiz aholi kambag‘allikka qaytish xavfi ostida qolmoqda. 2-jadvalda kambag‘allik dinamikasi keltirilgan.

2-jadval. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi dinamikasi (aholiga nisbatan, foizda)

Yil	Kambag‘allik darajasi	Izoh
2021	17,0	Boshlang‘ich daraja
2024	8,9	—
2025	5,8	2024-yilga nisbatan 3,1 foiz bandga past

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlili [3] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hududiy kesimda kambag‘allikning eng katta pasayishi Jizzax (11,8 foizdan 5,8 foizgacha), Xorazm (11,9 dan 6,7 gacha), Sirdaryo (11,3 dan 6,2 gacha), Qoraqalpog‘iston (10,8 dan 6,6 gacha) va Toshkent shahrida

(7,3 dan 3,5 gacha) qayd etilgan. Shahar kambag‘alligi 8,6 foizdan 5,2 foizgacha, qishloq kambag‘alligi esa 9,2 foizdan 6,4 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, kambag‘al aholining mutlaq soni eng ko‘p Samarqand (265 ming), Farg‘ona (239 ming), Qashqadaryo (238 ming) va Andijon (214 ming) viloyatlarida to‘plangan. Umuman, taxminan 2,2 million kishi kambag‘allik chizig‘idan pastda yashaydi.

Daromadlar tarkibi ham inklyuziv o‘sish nuqtai nazaridan ijobiy o‘zgargan. 3-jadvalda daromad manbalari ulushi keltirilgan.

3-jadval. Aholi daromad manbalarining tarkibi (foizda)

Daromad manbai	2024	2025
Mehnat daromadi	67,7	72,6
Keksalik pensiyalari	12,2	11,8
Qishloq xo‘jaligidan daromad	12,7	10,1
Ijtimoiy yordam	2,2	1,6
Boshqa manbalar	5,2	3,9

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2025-yil yakunlari bo‘yicha aholi daromadlari tahlili [3] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mehnat daromadi ulushining oshishi aholi daromadlarida bandlikning roli ortib borayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy yordam ulushining kamayishi ham daromadlar tarkibidagi mazkur o‘zgarish bilan bir vaqtda kuzatilmoqda. Yuqori va quyi kvintil daromadlari nisbati 6,3 baravardan 5,7 baravargacha, Jini koeffitsienti esa 0,35 dan 0,33 gacha pasaygan. Aholi jon boshiga o‘rtacha oylik daromad 2,6 million so‘mni tashkil etgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun uchta asosiy yo‘nalishda foydali. Birinchidan, farovonlikni ko‘p o‘lchovli baholash: faqat daromad bo‘yicha emas, bandlik, sog‘liq, ta’lim va moliyaviy xizmatlar bo‘yicha ham muntazam kuzatuv yuritish tavsiya etiladi. Bunday kuzatuv kambag‘allikdan chiqqan, biroq yana unga qaytish xavfi ostidagi aholini ham aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, hududiy tafovutlarni ochiq ko‘rsatish va yordamni hududlar kesimida yo‘naltirish. Vetnam tajribasi kambag‘allikning hududlar bo‘yicha keskin farq qilishini ko‘rsatadi; O‘zbekistonda ham kambag‘al aholining mutlaq soni yirik viloyatlarda to‘plangani manzilli siyosatga ehtiyojni bildiradi. Uchinchidan, sifatli bandlikni ta’minlash: mehnat daromadi ulushining oshishi barqaror ish o‘rinlari yaratish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosatining muhimligini tasdiqlaydi.

Fiskal siyosat ham inklyuziv o‘sishning muhim vositasi hisoblanadi. Byudjet va soliq siyosati ijtimoiy sohani samarali moliyalashtirish, soliq yukini optimallashtirish va davlat xarajatlarini samarali yo‘naltirish orqali o‘sish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Xalqaro moliya tashkiloti baholarida soliq tushumlarining YaIMga nisbatini oshirish, imtiyozlarni qisqartirish va byudjet xarajatlari samaradorligini ko‘tarish zarurligi qayd etiladi; bu esa ijtimoiy xarajatlar uchun barqaror moliyaviy asos yaratadi. 4-jadvalda xalqaro tajribani qo‘llash yo‘nalishlari umumlashtirilgan.

4-jadval. Xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Xalqaro yondashuv	O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyati
Ko‘p o‘lchovli baholash	Daromad, sog‘liq va bandlikni birgalikda o‘lchash	Kambag‘allik va farovonlikni ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirish
Hududiy manzilli yordam	Hududlar kesimida kambag‘allikni e’lon qilish va yordamni yo‘naltirish	Katta kambag‘al aholiga ega viloyatlarga ustuvor e’tibor
Sifatli bandlik	Barqaror ish o‘rinlari va ko‘nikmalarni rivojlantirish	Kichik biznes va mehnat daromadi ulushini oshirish
Moliyaviy inklyuziya	Moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish	Aholi va kichik biznes uchun moliyaviy xizmatlar kengayishi
Fiskal asos	Ijtimoiy xarajatlar uchun barqaror byudjet	Soliq tushumlarini oshirish va xarajatlar samaradorligini ko‘tarish

Manba: OECD, IMF hamda inklyuziv o‘sish va fiskal barqarorlikka oid ilmiy tadqiqotlar [1–5] asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xalqaro tajribani qo‘llashda har bir mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi, demografik xususiyatlari va institutsional sharoitlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli yondashuvlar mahalliy sharoitga moslashtirilishi va ularning ta’siri muntazam baholanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda yuqori iqtisodiy o‘sish kambag‘allik darajasining sezilarli pasayishi (2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha), mehnat daromadi ulushining oshishi va daromad tengsizligining kamayishi bilan birga kechmoqda. Shu bilan birga, aholining muayyan qismi kambag‘allikka qaytish xavfi ostida qolmoqda, hududlar o‘rtasida farqlar saqlanmoqda.

Xalqaro tajriba asosida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor deb baholanadi: farovonlikni ko‘p o‘lchovli baholash tizimini joriy etish; hududlar kesimida manzilli yordam siyosatini kuchaytirish; Sifatli bandlikni ta’minlash hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash; moliyaviy xizmatlardan teng foydalanishni kengaytirish; ijtimoiy xarajatlar uchun barqaror fiskal asosni mustahkamlash. Mazkur chora-tadbirlarni kompleks amalga oshirish iqtisodiy o‘sish natijalaridan jamiyatning barcha qatlamlari foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boarini R., Murtin F., Schreyer P. Inclusive Growth: The OECD Measurement Framework // OECD Statistics Working Papers. – Paris: OECD Publishing, 2015. – No. 2015/06. – 38 p. – DOI: 10.1787/5jrqppxjqhg4-en.
2. International Monetary Fund. IMF Executive Board Concludes 2026 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan // IMF Press Release. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2026. – No. 26/214. – 18 June. – URL: https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation.
3. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi O‘zbekistonda 2025-yil yakuni bo‘yicha kambag‘allik darajasi va aholi daromadlari tahlilini taqdim etdi // «Dunyo» axborot agentligi. – 2025. – 31-dekabr. – URL: https://dunyo.info/ekonomika/ceir-predstavil-analiz-urovnya-bednosti-i-dohodov-naseleniya-v-uzbekistane.
4. Isomiddinova X. O‘zbekistonda fiskal barqarorlikni ta’minlash yo‘llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026. – T. 4, № 5. – DOI: 10.5281/zenodo.20121577.
5. Zokirova M.I. Inklyuziv iqtisodiy rivojlanish orqali O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish: asosiy omillar va ularni kuchaytirish mexanizmlari // Raqamli iqtisodiyot. – 2025. – № 12. – B. 1779–1790. – URL: https://api.infocom.uz/api/v1/magazine/download-article?article_id=1017.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz